


ҚИШЛОҚ ХҮЖАЛИГИДА ИХТИСОСЛАШГАН  
КЛАСТЕРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ:  
ТАЖРИБАЛАР, НАТИЖАЛАР ВА  
ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР

Республика илмий-амалий анжумани

**МАТЕРИАЛЛАР ТҮПЛАМИ**

2020 йил 9 ноябрь



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**



**“ИҚТИСОДИЁТ” КАФЕДРАСИ**

**ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ИХТИСОСЛАШГАН  
КЛАСТЕРЛАРНИ ШАКЛАНТИРИШ:  
ТАЖРИБАЛАР, НАТИЖАЛАР ВА ИННОВАЦИОН  
ЁНДАШУВЛАР**  
**Республика илмий-амалий анжумани**

**МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ**

**Бухоро  
«Дурдана» нашриёти  
2020 й**

**Қишлоқ хўжалигида ихтисослашган кластерларни шакллантириш: тажрибалар, натижалар ва инновацион ёндашувлар.** Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2020 йил 9 ноябрь: - Бухоро : “Sadreddin Salim Buxoriy” Durdonanашриёти, 2020.-212 б.

**Дастурий қўмита:** и.ф.д.профессор О.Х. Хамидов, PhD, доц О.С. Қаҳхоров, и.ф.д. професор Б.Н. Наврӯз-Зода, и.ф.д. Т.Х. Фармонов, и.ф.н., доц. М.А. Орипов, и.ф.н., доц., А.Т. Жўраев, и.ф.н., доц., С.У. Таджиева, и.ф.н., доц., Д.Ш. Явмутов, и.ф.н. доц., Х.И. Мўминов, и.ф.н. доц., М.М. Тоирова, и.ф.ф.д. А.Ж. Абдуллоев.

**Ташкилий қўмита:** PhD,доц О.С. Қаҳхоров, и.ф.д. профессор Б.Н. Наврӯз-Зода, и.ф.н., доц., А.Т. Жўраев, и.ф.ф.д. А.Ж. Абдуллоев, и.ф.ф.д. З.С. Нуров, катта ўқитувчи: С.С. Давлатов, ўқитувчи А.Д. Кудратов

“Қишлоқ хўжалигида ихтисослашган кластерларни шакллантириш: тажрибалар, натижалар ва инновацион ёндашувлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани тўпламига етакчи олимлар, профессор-ўқитувчилар, катта илмий ходим-изланувчилар, мустақил изланувчилар илмий тадқиқот ишлари доирасида илмий мақолалари ва маъруза тезислари киритилган. Мазкур анжуман қишлоқ хўжалигида кластерни ривожлантиришнинг устувор йўналишларини аниқлаш, Кластерлар фаолиятини ташкил қилиш ва ривожлантиришнинг ҳуқуқий – меъёрий асосларини такомиллаштириш, Кластер тизимида фермер хўжаликларини самарали ва барқарор фаолият кўрсатишни таъминлаш йўлларини аниқлаш мақсадида Бухоро давлат университетининг Иқтисодиёт ва туризм факультети “Иқтисодиёт” кафедрасида Давлат илмий-техник дастурлари доирасида бажарилаётган ОТ-Ф1-04(08) -рақамли “Кооперация ва интеграция муносабатлари асосида фермер хўжаликларида рақобатбардош маҳсулотлар етиширишнинг мақбул моделларини ишлаб чиқиш” амалий тадқиқотлар лойиҳаси доирасида ташкил этилиб, анжуман материаллари тўпланиб нашр этилган.

Тўплам и.ф.д., профессор Б.Н. Нарӯз-Зода умумий таҳрири остида чоп этилди.

Тўплам Бухоро давлат университети илмий-техникавий кенгаши томонидан чоп этишга тавсия этилган.

Тақризчилар:

- 1.Азимов Б – Бухоро мухандислик технология институти доценти, и.ф.н.
2. Хўжақулов Х.Д. – Тошкент молия институти профессори, и.ф.д.

Мазкур тўпламга киритилган илмий ишлар ва ғоялар мазмуни, ундаги статистик маълумотлар, саналарнинг аниқлигига ҳамда танқидий фикр-мулоҳазаларга муаллифларнинг шахсан ўзлари масъулдирлар.

Европейский Союз выражает оптимизм в отношении возможности развития сельского туризма, чтобы компенсировать некоторые негативные последствия сельскохозяйственной политики ЕС и для того, чтобы защитить сельское наследие.

Основная цель ЕС в отношении сельского туризма заключается в развитии туристического продукта, который обеспечит прямые доходы сельским домашним хозяйствам для постоянного улучшения жизни в сельских общинах, а также сохранение исторического наследия сёл. Причина сомнений органов Европейского союза в этом секторе, обусловлена тем, что органы местного самоуправления не достаточно обеспечены для организации непрерывного развития сельского туризма, в то время, как национальные органы, как правило, содействуют развитию крупных туристических горных, прибрежных, а также других курортов.

## **TURISTIK KLASTERNI TASHKIL ETISH VA ULARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**Qodirov A.A.  
BuxDU, Iqtisodiyot kafedrasи katta o'qituvchisi**

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida keng qo'llaniladigan iqtisodiy rivojlanish usullaridan biri – klasterli yondashuvdir. Iqtisodiyotda klaster deganda avvalo, hududiy jihatdan yaqin bo`lgan hamda g`unktsional jihatdan bir-biri bilan o`zaro bog`liq bo`lgan turli xil subektlar, ya`ni tashkilotlar, ishlab chiqarish hamda xizmat ko`rsatish korxonalari, ilmiy-tadqiqot va ta`lim maskanlarining birlashmasi tushuniladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning klasterli yondashuvi yangicha boshqaruva texnologiyasi bo`lib, ushbu yondashuv nag`aqat alohida hudud yoki tarmoq, balki butun mamlakat raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini beradi.

**“Turistik klasterlarni shakllantirish”** deganda, biz turistlarning ko`zlagan sayyohat maqsadlariga binoan ularning sayyoqlik ehtiyojlarini qondira oladigan, ing`ra- va ing`otuzilmaga ega bo`lgan, moslanuvchan turistik taklig` tizimi bilan xarakterlanadigan strategik tijorat birligi sig`atidagi turistik klasterlarni tashkil etish jarayonini tushunamiz.

Turistik klaster tadbirkorlik strukturasi majmuini, hokimiyat va davlat idoralari organlari, jamoat tashkilotlari, turizm industriyasini bajaruvchi va qo'shma tarmoq , malum bir hududdagi resurslarni birgalikda ishlataladigan va tashkil etadigan tashkilotlar yuksalish va turistik dasturlarning yuksalishi va hududiy iqtisodining raqobatga moyilligini ig`odalaydi.

Turistik klasterlashtirishdan asosiy maqsad – sayyoqlik talab va taklig`ning uyg`un birligini marketing usulida boshqarish tizimini yaratish hamda shakllantiradigan jozibador turistik klasterlarning raqobat ustunligini oshirishdadir.

Turistik klasterning o`ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

-turistik klasterter subyektlari orasida mehnat taqsimotining mayjudligi (tadbirkorlik shakllanishi , hokimiyat va davlat idoralari organlari jamoat tashkiloti) qo'shma tarmoqlarning turizmda tashkil etish ( davlat – xususiy sherikchilik, assotsatsiyalar va ittig`oq)

-malum bir hududda joylashgan turistik resurslardan birgalikda g`oydalanish ( tur klaster obyekti)

- tur paket tuzuvchilar orasida tarkiblarga ko'ra vertical (turizm industriyasi ichki maxsulot zanjiri) va gorizontal ( turistik klaster qatnashchilari orasida) aloqalarning mavjyldigi

- turistik klaster ishlab chiqishning yagona maqsadi, klaster subyekt va obyekt o'rtasidagi raqobatni kuchaytiruvchilarning borligi.

Turistik klasterni tasnig`lashda uning bir necha belgilarini orqali turlarga ajratib o'rganiladi

*Geografiyik joylashuviga ko'ra* malum bir mintaqada yoki mintaqalar aro, chegaradan tashqarida joylashgan turistik zonalar

*hayotiy davr bosqichiga ko'ra* pre-klasterlar, ( mahalliy turistik bozorning shakllanishi), hosil bo'layotgan klasterlar, ( turistik jarayon qatnashchilari orasida kooperativ aloqalarning shakllanayotgani) , rivojlanayotgan klaster( ichki tashqi aloqalarining shakllanib borishi hamda allaqachon yaxshi samaralarga erishish) rivojlangan klaster ( yillar bo'y lab rivojlangan turizm klasteri) yoqolib borayotgan klaster( ancha eskirib qolgan klasterlar)

*Inovatsiya ishlab chiqarish marzakazining qatnashish darajasiga ko'ra* (IIM) 2 ga bo'linadi :klasterlar ilmiy markazlarda va universitetlarda shakllanadi yoki aloxida tashkilotlar tomonidan ishlab chiqariladi, bunda ( IIM) mavjud bo'lmaydi.

*Turistik diqqatga sazovor joylar turiga ko'ra* muzey klasterlari, ko'ngil ochar klasterlar, sport klasterlari, ekologik klasterlar, etnografiyik klasterlar, senator-kurort klasterlari va bir turistik dasturda bir necha ko'rinishlari jamlanadi.

*Turistik resurslar turiga ko'ra* Landshag`t ( dengiz, ko'l, daryo) o'rmon, tog', aralash


*Mashtabiga ko'ra*, Mahalliy ( tashkil qiluvchilar g`aqat kichik hududga taluqli bo'lgan qismga etibor berishadi), mintaqaviy ( respublika hududiga kiruvchi joylay ham kiritiladi) , milliy ( respublikaning bir necha viloyatlarini kiritish) , xalqaro( o'zining jamoasiga chet ellik hamkorlarning qo'shilishi);

*Boshqaruv shakliga ko'ra* biznes-tizimning boshqarilishi , davlat-orgnolarining boshqarilishi va davlat hamda xususiy idoralarning boshqarilish uslubiga ko'ra;

*Maqsadli Istemolchilarining guruxiga ko'ra* Rekreatsion-turist ( qayta tiklanish hamda madaniy rivojlanish), avtoturist ( turistik tashkilotlar hamda organlarni birga ishlashi hamda bir birini to'ldirib borishi);

Shakllantirish usubiga ko'ra maxsus turlar ( aynan bir gurux uchun shakllangan turlar) tarixiy turlar ( oldindan tayyorlangan an'anaviy turlar);

O'zbekiston Respublikasi sharoyitida turistik klasterlashtirish jarayonini quyidagi 8 ta bosqichda:



### 1-rasm. Turistik klasterlashtirish bosqichlari

Bizning nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ushbu tasnid`lash uslubi turistik klasterni o'rganib chiqish hamda jarayonni analiz qilishga yordam beradi. Turistik klasterlarning turlarini ixtisoslashgan majmuasini va uning tasnid`ini yaratish yo`li bilan turistik klasterlarni tashkil etish va qo'llashni boshqarish jarayonini metodik bazasini mukammallashtiradi.

Turistik klasterlarni tashkil etish va rivojlantirishdan asosiy maqsad mintaqaning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy resurs va innovatsion salohiyatidan foydalagan holda sifatli, raqobatbardosh turistik mahsulotlar ishlab chiqishdan iborat. Mintaqalarning turistik-rekreatsion klasteri uning tarkibiga kiradigan xo`jalik yurituvchi subyektlar faotinin samaradorligini oshirish uchun qulaylik tug`diradi. Natijada ular uchun axborot almashinushi va yangiliklarni joriy etish, xamjihatlikda harakatlarni muvofiqlashtirish ishlarini engillashtirish,turistlarga xizmat ko`rsatuvchi infratuzilma obyektlaridan birgalikda foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

Mintaqaning innovatsiya salohiyatidan foydalanish va uni kengaytirishda turizm klasterlarini tashkil etish imkoniyatini beradi:

- Turizm biznesii, fan va davlat boshqaruvi tasghkilotning birgalikdagi hamkorligi muvofiqlashtirish;
- Turistik klaster qatnashchilar faoliyatining resurslarga ega bo`lish imkoniyatini (axborot, innovatsiya va Texnologik) kengaytirish hamda infratuzilma obyektlaridan birgalikda foyda-lanish yo`li bilan xarajatlar, jumladan, trahsaksiya xarajatlarini kamaytiris asosida sama-radorligini oshirish;
- Turizm xizmatlarining ishlab chiqaruvchilar va ictemolchilar o`rtasidagi o`zaro tasirni kuchaytirish asosida innovatsion mahsulotlarni yaratish va bozorga olib chish jarayonini jada;llashtirish
- klasterni shakllantirishda ishtirok etuvchi investorlar uchun imtiyozlarning mavjudligi sababli mintaqada qulay investitsiya muhitini shakllantirish;

- yangi biznesni yaratish va rivojlantirish sharoitlarni yaxshilash va rag`batlantirish.

O'zbekistonda turizm industriyasida klaster yo'llining qo'llanishi bir qancha qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi, jumladan sohada kerakli tajribaning kamligi , turistik klasterning ishlab chiqarish va qo'llashni boshqarish metodik ishlanmalarining soni kamligi, malakali mutaxassislarining kamligi kiradi. Mamlakatimizda turizmni yanada jadal rivojlatirish bo'yicha islohotlar amalga oshirilishi natijasida yaqin davr ichida turistik klasterning shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

## **AGROKLASTER –AGROTURIZM BIRLASHMALARINI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI**

**O`roqova D.B.**

**Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrasи o`qituvchisi**

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida keng qo'llaniladigan iqtisodiy rivojlanish usullaridan biri – klasterli yondashuvdir. Iqtisodiyotda klaster deganda avvalo, hududiy jihatdan yaqin bo`lgan hamda funksional jihatdan bir-biri bilan o`zaro bog'liq bo`lgan turli xil subektlar, ya`ni tashkilotlar, ishlab chiqarish hamda xizmat ko`rsatish korxonalari, ilmiy-tadqiqot va ta`lim maskanlarining birlashmasi tushuniladi. Iqtisodiyotni rivojlanirishning klasterli yondashuvi yangicha boshqaruv texnologiyasi bo`lib, ushbu yondashuv nafaqat alohida hudud yoki tarmoq, balki butun mamlakat raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini beradi.

Agrar tarmoqqa innovatsiyalarni keng tatbiq qilish, zaminimizda etishtirilayotgan xom ashyoni o`zimizda qayta ishlashni chuqurlashtirish bugungi zamon talabi hisoblanadi. Zero, qishloq xo`jaligi qanchalik sanoatlashsa, davlatning iqtisodiy va eksport salohiyati shunchalik ortadi, aholi turmush farovonligi yuksaladi. Shu bois O'zbekistonda keyingi paytlarda ilg'or texnologiyalarga asoslangan infratuzilmani yaratish, qishloq xo`jaligida klaster usulini joriy etishga jiddiy e`tibor qaratilmoqda. Ana shunday innovatsion loyihalardan biri Buxoro viloyatida ro`yobga chiqarilmoqda.

Dunyoda va Rossiyada turistik xizmatlarga talabning o'sish tendentsiyasining davom etishi bilan qishloq turistik xizmatlari tobora ko'proq o'ren egallamoqda. Bu shahar tabiatining dastlabki shartlari va ta'til vaqtining ko'payishi va odamlarning sayohatga bo'lgan qiziqishi ortishi bilan bog'liq. agriturizm qishloq xo`jaligini kuchaytiradi. Qishloqlarning iqtisodiy tuzilishi yaxshilanmoqda, mehmondo'stlik sohasiga aloqador tarmoqlarning rivojlanishi rag`batlantirilmoqda, ilgari depressiv, boshqa faoliyat turlarini rivojlanirish uchun istiqbolsiz deb hisoblangan qishloqlar va qishloqlar iqtisodiyotga jalb qilingan.